



KESKIN VAZIYATLARNING JURNALIST KASBIY FAOLIYATIGA TA'SIR XUSUSIYATLARI

Yoshin Komilovich Hakimov

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti

Elektron pochta: Yoshin76@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada jurnalistlarning ekstremal keskin sharoitlarda ishlay olishi uchun zarur talablar yoritib berilgan. Shuningdek, bu borada mutaxassislarining tavsiyalari, fikr-mulohazalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *jurnalist, harbiy, psixologiya, ruhiy, vaziyat, oriyentatsiya.*

Аннотация. *В статье освещаются требования к журналистам, способным работать в условиях экстремального стресса, а также рекомендации и мнения экспертов по данному вопросу.*

Ключевые слова: *журналист, военный, психология, духовный, ситуация, ориентация.*

Ma'lumki, jurnalistlar kasbiy faoliyati taqozosiga ko'ra turli favqulodda, keskin va ekstremal sharoitlarda axborot tayyorlashi kerak bo'lishi mumkin. Bu ular uchun o'ziga xos sinovdir. Ushbu naqolada harbiy va fuqaro jurnalistlarning ekstremal vaziyatlarda ishlay olishi uchun zarur talablarni tahlil qilishga urindik.

Faxriy jurnalist, yozuvchi Nusrat Rahmat shunday bitgan edi: "Gazeta, jurnal, televidenie yoki radioda ishlasangiz, kasbu kor taqozasi bilan qaerlarga bosh suqmaysiz, kimlar bilan muloqotda bo'lmaysiz?! Viloyat gazetasida ishlab yurgan paytlarimda jasadlar qatorlashtirib qo'yilgan morgga ham, jinnixona, qamoqxonaga ham kirib chiqishimga to'g'ri kelgan" [1, 12-bet].

Bu yerda muallif yozuvchi sifatida shakllanishida muxbir bo'lib ishlab yurgan paytlarida orttirgan tajribasi qo'l kelganini va jurnalistning kasbiy faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo'lgan o'ziga xos sinovlarni alohida ta'kidlamogda. Bunday sinovlar va mas'uliyat harbiy jurnalistlarda ikki karra ortadi. Chunki ular fuqaro hamkasblari duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda, ularga uchramaydiganlariga ham to'qnash kelaveradilar.

Masalan, harbiy jurnalistlar Vatan himoyachilari bilan birgalikda dala o'quv mashg'ulotlari maydonlarida, dasht-cho'l va tog'li hududlarda tashkil etiladigan jangovar o'quv mashqlarida ishtirok etishi, bu jarayonda ba'zan texnikalarsiz uzoq masofalarga piyoda, gohida ob-havoning injiqliklariga bardosh berib, issiq-sovuq, yog'in-sochin va dovul-bo'ronlarda ham harakatlanishi, harakatlanish davomida ham kasbiy professional faoliyati taqozosiga ko'ra tasvirga tushirish, intervyular olish,



ma'lumotlar to'plash kabi ishlarni ham amalga oshirishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari ular ziddiyatli vaziyatlarga, jumladan, to'qnashuvlarga yoki uning oqibatlariga ham duch kelishi, ayanchli ahvolga tushgan yaradorlar, qochqinlarning mashaqqatli kechmishlari kabi inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan holatlarga guvoh bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda harbiy jurnalistga nafaqat jismonan baquvvat va ma'nan yetukligi, balki stresslarga bardoshli, ruhiy psixologik bosimlarga ham chidamlilik sifatlariga egaligi asqotadi.

Bu xususda professor Nazira Toshpo'latovaning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli:

“Jurnalistlar favqulodda holatlarda ishtirok etish uchun ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan tayyor bo'lishi zarur. Buning uchun maxsus o'quvlar, seminar-treninglar tashkil etilib, yuqorida sanab o'tilgan favqulodda holatlarning turlariga qarab jurnalistlarga qanday sharoitda qanday ish tutishlarini o'rgatish zarur. Chunki, birinchidan voqea ro'y berayotgan hududning o'zi (aytaylik, suv toshqini bo'lgan hududda jurnalistlar ham jismoniy zarar ko'rishi, kasallikka chalinishi, otishmalar bo'layotgan hududda ularga o'q tegishi mumkin), ikkinchidan, voqeaga aloqador bo'lgan shaxslarning ruhiy, emotsional va jismoniy xatti-harakatlari jurnalistlar hayotiga xavf solishi (ruhiy zo'riqqan jabrlanuvchi nima qilayotganini bilmay jurnalistga zarar yetkazishi, «qaynoq nuqta»larda jurnalistlar o'g'irlab ketilishi) mumkin”. [2, 244-b].

Rezervdagi polkovnik, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Alijon Safarov ziddiyatli hududlarda vazifa bajarishga yo'l olayotgan jurnalistlarga faoliyati davomida e'tibor qaratishi kerak bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- “xalqaro gumanitar huquqning asosiy qoidalarini o'rganishi;
- hudud joylashuvi, xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analarini o'rganishi;
- nizoga (harbiy yoki boshqa) nima sabab bo'lganini bilishi;
- hududning jo'g'rofiy joylashuvi, iqlimi, shahar, posyolka, qishloqlar, daryo, ko'llar va boshqalarni bilishi;
- jurnalistni josus deb hisoblamasliklari uchun xaritaning olib yurmasligi, telefonida ham saqlamasligi kerak;
- imkon qadar hududda yashaydigan aholining tilini o'rganishi kerak;
- hudud qonunlari, akkreditatsiya talablariga rioya qilishi lozim;
- sog'lig'ini sug'urta qilishi;
- turli yuqumli xastaliklardan emlanish;
- qon guruhini aniqlab, shaxsini tasdiqlovchi hujjatga kiritish;
- shaxsiy gigiena vositalarini olishi;
- dori vositalari joylangan tibbiy qutichaga ega bo'lishi;
- pul mablag'i (dollar, yevro), borayotgan mamlakati valyutasidan olishi;
- oziq-ovqat va suv;
- spirt va shirinliklar;
- issiq kiyim;





yoritish uchun kichik fonar;
hududiy tilga o'girilgan beyjik;
bronjilet;
radiopriyomnik;
ryukzak" [3, 45-,46-bet].

Harbiy jurnalistlar jangovar vaziyatlarda hamrohlaridan ayrilib, yolg'iz qolib ketganida notanish hududlarda to'g'ri yo'nalishda harakatlanishni aniqlab olishi uchun harbiy topografiya fanidan olgan bilimlari qo'l keladi. Harbiy topografiyada bu "Orientirlash" deyiladi.

"Orientirlashning oddiy usullari kompas yordamida, osmon yoritkichlari va mahalliy predmetlar alomati bo'yicha gorizont tomonlarini va yo'nalish harakatini aniqlashda qo'llaniladi" [4, 7-bet].

Yo'nalishni aniqlab olish, bunda kompasdan foydalanish, agarda kompas ishdan chiqqan bo'lsa yoki tog'li hududda (tog'da magnit anomaliyalari kompas ishini buzishi mumkin) bo'lsa, osmon jismlari orqali, buning ham iloji bo'lmasa (masalan, bulutli ob-havo osmon jismlarini ko'rishni cheklasa), tabiiy vositalar – daraxt shoxlarining shimol va janubga qaragan tomonlaridagi siyrak yoki zichligiga qarab (ya'ni daraxt shoxlari janub tomonga qarab nisbatan qalin va baquvvatroq bo'lib o'sadi), kesilgan daraxt to'ngasiga duch kelsa, undagi halqalarning janubga qarab kengayishini inobatga olib, chumolilarning uyasi og'ziga qarab (uyalarning og'zi janub tomonda bo'ladi), yil fasllariga ko'ra janub tomonga qaragan nishabliklardagi qorlarning nisbatan ertaroq eriy boshlagani-yu, issiq mavsumda xuddi shunday o'rinlardagi o't-o'lanlarning ertaroq qovjirashi, toshlarning shimol tomonida moxlarning paydo bo'lishi kabilarni bilish ham yo'nalishni belgilashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ziddiyatli, keskin va stresslarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyatga tushib qolishdan hech kim kafolatlanmagan ekan, demak, unga oldindan tayyorgarlik ko'rib borish yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini oladi yoki kamaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nusrat Rahmat, "Men jurnalistman", Toshkent, "Ёзувчи" 2002, 208 b.
2. Файзулла Мўминов, Назира Тошпўлатова. "Журналистика социологияси ва психологияси". Тошкент «O'zbekiston» 2019. 306-бет
3. A.Safarov, "Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi", Toshkent, 2023, "Universitet" nashriyoti, 132 b.
4. H. Toshmetov, "Harbiy topografiya" 208 b.